



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI



**2025- YIL YANVAR-FEVRAL
DASTLABKI MA'LUMOT**

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natjalarini qo'shgan holda

Sirdaryo viloyatida faoliyat
ko'rsatayotgan qurilish korxonalari

Qurilish korxonalarini soni, birlikda



Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
2025-yil 1-mart holatiga, birlikda


2025-yil 1-mart holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 739 tani tashkil etdi.



Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 278 tasi yoki viloyatdagি jami korxonalarning 37,6 % Guliston shahrida joylashgan.

Qurilish korxonalari soni
2025-yil 1-mart holatiga, birlikda




Shuningdek, Guliston shahrida 278 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 37,6 %), Mirzaobod tumani 63 ta (8,5 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2025-yilning yanvar-fevral oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 509,4 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 85,0 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʼsish surʼati

■ hajm, mlrd soʼmda ■ oʼsish surʼati, % da




Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʼz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

Sirdaryo viloyatida qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida, xususan, Mirzaobod tumani (126,2 mlrd so‘m), Guliston shahri (89,3 mlrd so‘m) va Sirdaryo tumanida (35,2 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari *yanvar-fevral oylarida*



* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajjni hisobga olgan holda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-fevral oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 70,7 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 114,9 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 22,7 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 43,3 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,6 % ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 183,7 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati

yanvar-fevral oylarida, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi

yanvar-fevral oylarida



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 79,6 % yoki 405,5 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



10,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **40,5** mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **10,0** % ni tashkil etdi.



64,7 %


Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **262,3** mlrd so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **64,7** % ni tashkil etdi



25,3 %


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **102,7** mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **25,3** % ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi yanvar-fevral oylarida, % da



Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda



* Viloyat umumiyo ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajjni hisobga olgan holda.

2025- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Mirzaobod tumani (110,3 mlrd so'm), Guliston shahri (76,2 mlrd so'm), Sirdaryo tumani (31,6 mlrd so'm) va Yangiyer shahrida (19,5 mlrd so'm) qayd etildi.

Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,1 % ni tashkil etib, 2024- yilning mos davridagi ko'rsatkichiga nisbatan 7,1 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, ulush 2024- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % punktga ko'payib 61,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2024- yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga kamayib, 34,2 % ni tashkil etdi.

Bino va inshootlar qurilishining jami hajmi – **360,2 mlrd so'm**




2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari (% da)

Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (86,6 %), Guliston tumani (73,0 %) va Guliston shahrida (72,8 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi

yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda




* Viloyat umumiyo ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,2 % ni tashkil etdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 35,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024- yilning mos davriga nisbatan 35,7 % punktga ko'payib 79,8 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari va ulushi *yanvar-fevral oylarida*




2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari (% da)

Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlaringin hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Shirin shahri (32,8 %), Oqoltin tumani (30,9 %) va Sirdaryo tumani (29,8 %)da kuzatildi.

Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi

yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda



* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajjni hisobga olgan holda.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024- yilning mos davriga nisbatan 6,4 % punktga kamaydi va 7,1 % ni tashkil etdi.

Qolgan 92,9 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 6,4 % punktga ko'paydi .

Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati yanvar-fevral oylarida



Jamiga nisbatan ulushi




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Sardoba tumanida (15,7 %), Oqoltin tumanida (12,1 %) va Sayxunobod tumanida (11,5 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda



* Viloyat umumiyo ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmi hisobga olgan holda.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi


yanvar-fevral oylarida, mlrd so‘mda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.


Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo‘yicha taqsimoti va o‘sish sur’ati

yanvar-fevral oylarida




Kichik korxona
va mikrofirmalar

2024- yil mos
davriga nisbatan
117,9 %



Norasmiy sektor

2024- yil mos
davriga nisbatan
103,1 %




Yirik qurilish
tashkilotlari

2024- yil mos
davriga nisbatan
21,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 40,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 21,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 23,3 % ga kamayib, 8,0 % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi *yanvar-fevral oylarida*



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati *yanvar-fevral oylarida*

Yil	Qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm)	O'sish sur'ati (%)
2021	86,7	13,9
2022	8,9	9,4
2023	5,8	53,2
2024	180,4	28,4
2025	40,5	21,8




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Shirin shahrida (49,8 %), Guliston tumanida (8,7 %) va Oqoltin tumanida (8,2 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda




* Viloyat umumiyo ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

2025- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,8 % to'g'ri kelib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 18,5 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 117,9 % ni tashkil etgan holda 345,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi yanvar-fevral oylarida



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati yanvar-fevral oylarida


67,8 % oldingi yilning mos davriga nisbatan	108,1 % oldingi yilning mos davriga nisbatan	85,7 % oldingi yilning mos davriga nisbatan	76,8 % oldingi yilning mos davriga nisbatan	117,9 % oldingi yilning mos davriga nisbatan
241,6 <i>mlrd so'm</i>	286,5 <i>mlrd so'm</i>	301,7 <i>mlrd so'm</i>	284,3 <i>mlrd so'm</i>	345,6 <i>mlrd so'm</i>
2021	2022	2023	2024	2025
Yillar				

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (91,6 %), Guliston shahri (88,9 %) va Yangiyer shahriga (87,0 %) to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi

yanvar-fevral oylarida, mlrd so'm




* Viloyat umumiyoq ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 24,2% yoki 123,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,1 % tashkil etdi. Shundan 99,5 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 101,4 %, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 3,2 mlrd so'mni va 147,5 %, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 20,6 mlrd so'mni va 107,3 % tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi

yanvar-fevral oylarida



Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

yanvar-fevral oylarida

142,3 %
oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

100,9 %
oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

91,0 %
oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

125,1 %
oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

103,1 %
oldingi yilning
mos davriga
nisbatan

30,7
mlrd so'm

33,4
mlrd so'm

36,0
mlrd so'm

112,4
mlrd so'm

123,3
mlrd so'm

2021

2022

2023

2024

2025


Yillar

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Sirdaryo tumanida (11,5 mlrd so'm), Guliston shahrida (9,0 mlrd so'm) va Mirzaobod tumanida (6,2 mlrd so'm) qayd etildi.

Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar-fevral oyida, mlrd so'mda



* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmi hisobga olgan holda.

Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ma'lumot uchun: davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Oqoltin tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiyligi hajmining 5,2 %), Sayxunobod tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiyligi hajmining 3,3 %) va Sardoba tumanida (ushbu hududdagi umumiyligi qurilish ishlarining 2,0 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda

Sirdaryo tumani 1,8

Mirzaobod tumani 1,4

Guliston tumani 1,1

Boyovut tumani 0,9

Oqoltin tumani 0,8

Xovos tumani 0,8

Sardoba tumani 0,7

Sayxunobod tumani 0,6

Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-fevral oylarida, mlrd so'mda

15,6

2024

8,1


2025

Yillar



Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Guliston shahrida (100,0 %), Shirin shahrida (100,0 %) va Yangiyer shahrida (100,0 %) qayd etildi.



* Viloyat umumiyo ko'satkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

Yillar

Qurilish ishlari Uslubiy tushuntirishlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi
Tel. 67 236-70-00 (2020)**